

PAPER

## O'T HAYDOVCHI TA'SIRLI YIG'MA TARKIBIDAGI AMINOKISLOTALAR TAHLILI

Umarxonov Xamidillohon Vahobjon o'gli <sup>1,\*</sup>, Mullajonova Manzura Toxirovna <sup>2</sup>, Xo'jayeva Nafisaxon Toshtemirovna <sup>3</sup>

<sup>1</sup>Toshkent farmatsevtika instituti, magistranti

<sup>2</sup>Toshkent Farmatsevtika Instituti dotsenti, PhD

<sup>3</sup>Qo'qon davlat universiteti dotsenti PhD

\* umarxonovx@mail.ru

### Abstract

Mazkur maqolada 4 ta dorivor o'simliklar *Calendula officinalis* - tirnoqgul guli, *Rosa canina* - na'matak mevasi, *Tanacetum vulgare* - dastarbosh gullari xamda *Chamomilla recutita* - moychechak gulidan tayyorlangan yig'ma-ning aminokislotalar tarkibi o'rganilgan. Natijalar 20 turdagi aminokislotalarning miqdorini ko'rsatadi, ularning ichida prolin (26.771 mg/g), glitsin (9.670 mg/g) va asparagin (9.697 mg/g) eng yuqori konsentratsiyaga ega ekanligi aniqlangan. Bu yig'maning farmakologik xususiyatini chuqurroq tushunish va yangi dori preparatlarini yaratishda asosiy manba bo'lib hizmat qiladi. Ushbu tahlil natijalari asosida, mahalliy o'simlik xomashyolari asosida o't haydovchi ta'sirli yig'ma tarkibini chuqur taxlil qilish va bu yig'madan yangi mahalliy dori visitalari ishlab chiqarish mumkinligini izoxlaydi

**Key words:** o'simlik xomashyolari, o't haydovchi ta'sirli yig'ma aminokislotalari, yuqori samarali suyuqlik xromotografiyasi, ekstrakt

### KIRISH

Dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibini chuqur o'rganish ularning shifobaxsh xususiyatlarini ilmiy asoslashda muhim ahamiyatga ega. O'simliklar bioaktiv moddalar manbai sifatida farmakologiyada keng qo'llaniladi. Ayniqsa o't haydovchi ta'sirga ega o'simliklar, yig'ma tarkibiga kiruvchi 4 ta dorivor o'simliklar *Calendula officinalis* – tirnoqgul

guli, *Rosa canina* - na'matak mevasi, *Tanacetum vulgare* - dastarbosh gullari xamda *Chamomilla recutita* - moychechak gulini fitokimyoviy tarkibi, o't qopi organlarning normal ishlashini qo'llab-quvvatlashda va toksinlarni chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Aminokislotalar - bu o'simliklarning bioaktiv komponentlari bo'lib, ular hujayra metabolizmi va fermentativ jarayonlarda ishtirok etadi. Shu sababli, ushbu o'simliklarning

Compiled on: February 3, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Environment for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).



1-jadval

O't xaydovchi yig'ma aminokislotalari tarkibi

№	Aminokislotalar nomi	Yig'ma kons mg/gr	№	Aminokislotalar nomi	Yig'ma kons mg/gr
1	Asparagin k-ta	5.575	11	Prolin	26.771
2	Glutamin k-ta	0.950	12	Tirozin	1.017
3	Serin	1.802	13	Valin	3.565
4	Glitsin	9.670	14	Metionin	1.298
5	Asparagin	9.697	15	Gistidin	2.298
6	Glutamin	1.763	16	Izoleysin	1.963
7	Sistein	0.979	17	Leyzin	1.813
8	Treonin	1.140	18	Triptofan	4.194
9	Argenin	0.470	19	Fenilalanin	1.301
10	Alanin	2.282	20	Lizin	0.181
		<b>Jami</b>			<b>78.728</b>

keladi. Bu aminokislotalar o'simliklarning o't haydovchi va detoksifikatsiya qiluvchi xususiyatlari bilan bog'liq inson organizimida o't suyqligini haydashda samarli ta'si ko'rsatadi. Shu bilan birga, fenilalanin, triptofan va metionin kabi esensial aminokislotalar ham mavjud bo'lib, ular organizm uchun zarur biologik faol moddalar hisoblanadi. Past konsentratsiyada lizin (0.181 mg/g) mavjudligi, o'simlikning protein tarkibida oz miqdorda bo'lishini ko'rsatadi. Bundan tashqari Asparagin k-ta (5.575 mg/g), Triptofan (4.194 mg/g) miqdorda ekanligini ham ko'rishimiz mumkin. O't haydovchi o'simliklarning yig'ma tarkibini tashkil etga 20 ta bu aminokislotalarning barchasi insonlar organizimida kechadigan moddalar almashinuvida jarayonida ishtirok etadigan muhim biologik moddalar hisoblanadi.

## XULOSA

Ushbu ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida *Calendula officinalis* – tirnoqgul guli, *Rosa canina* - na'matak mevasi, *Tanacetum vulgare* - dastarbosh gullari xamda *Chamomilla recutita* - moychechak gulini o'simliklari o'zida 20 turdagi aminokislotalarni jamlagan. Yig'ma konsentratsiya 78.728 mg/g bo'lib, o'simliklarning farmakologik faoliyatini, xususan o't haydovchi ta'sirini tushunishda muhim manba hisoblanadi. Mahalliy o'simlik xomashyolari asosida o't haydovchi ta'sirli yig'ma oshqozon ichak va hazim qilish xususan, o't qopining dimlanishi hamda o't yo'llari kasalliklari bilan og'rigan bemorlar uchun muhim vosita hisoblanadi. Hazim qilish muammolari bor bemorlarini bu yigma yordamida muammolardan halos bo'lishiga yordam beradi Ushbu ma'lumotlar yangi dori preparatlarini ishlab chiqishda, o'simlik ekstraktlarining standartlash va farmakologik baholashda asos bo'lishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shipunov A. B. Paporotniki // *Biologiya : Shkolnaya ensiklopediya / Belyakova G. i dr.* — M.: BRE, 2004. — 990 s. — ISBN 5-85270-213-7.
2. Arslonov M.T., Nabiyeu M.M., Pratorv O.P. *O'zbekiston begona o'simlik-larining zamonaviy tizimi va qo'sh (binar) nomlari.* Toshkent. 2003. 94 b.
3. Karimov V., Shomaxmudov A. *Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar.* Izd. Ibn-Sino nomidagi nashryot matbaa birlashmasi. Toshkent. 1993. 318 s.
4. Pratorv O.P., Odilov T.O. *O'zbekiston yuksak o'simliklari oilalarining zamonaviy tizimi va o'zbekcha nomlari (metodik tavsiya).* Toshkent. 1995. 39 b.
5. Steven A., Cohen Daviel J. *Amino acid analysis utilizing phenylisothiocyanata derivatives // Jour. Analytical Biochemistry* – 1988. – V.17.-№1.-P.1-16.
6. Sokolov S.Ya., Zamotayev I.P. *Spravochnik po lekarstvennym rasteniyam* Izd. Kazaxstan 1991. 415 s.